



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№4(5)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 416 sahifa,
27-aprel, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Формирование здоровьесберегающей образовательной среды в начальной школе в условиях инклюзии.....	10
Тургунова Нилуфар Абдусаломовна	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tez va aniq hisoblash ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	16
Dehqonova Maxliyoxon Shuhratjon, Musinjonova Dildoraxon Mahmudjon	
Научно-педагогический анализ методов математического моделирования: численные и аналитические подходы в обучении студентов	19
Мусурмонова Маъмура Оман кизи, Жураева Феруза Бахтиёр кизи, Сарсенбаева Мархабо Шадибековна	
Inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy moslashuvini rivojlantirish texnologiyasi.....	26
Turdimurodova Muazzam Muzaffarbek qizi	
M. Tvenning "Tom Soyerning boshidan kechirganlari" romanida bolalar obrazining tasviri masalasi	29
Sattarov Farrux Nuridinovich	
Pedagogik dasturiy vositalar yordamida dars sifatini oshirish	35
D. K. Ibadullayev	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning kasbga qiziqishlarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati	41
Isabekova Dilafruz Shermirzayevna	
Молодёжь Узбекистана в системе политических процессов.....	46
Юсупова Элеонора Фердинандовна	
Математика o'qitishda zamonaviy yondashuvlar: vaziyatli tahlil va amaliy samaradorlik	51
Matyaqubova Nazira Hikmat qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini sun'iy intellekt texnologiyalari asosida rivojlantirishning metodik modeli.....	54
Choriyev Olmosbek Baxriddin o'g'li	
Fan va tilni integratsiyalashgan holda o'qitish (CLIL)	60
M. D. Boynazarova	
Оптимизация показателей сердечного цикла у спортсменов при хроническом физическом перенапряжении посредством фармакологической поддержки	63
Нормуратов Абдулла Саппарович	
Chidamlilikka yo'naltirilgan sport turlarida uglevod va energiya almashinuvini farmakologik korreksiyasi....	67
Normuratov Abdulla Sapparovich	
O'quvchilarga dutor ijrochiligini o'rgatishning pedagogik yondashuvlari	70
Sa'dullayev Og'abek Abdurashid o'g'li, Nazirullayeva Nodira Akmal qizi	
Bolalar musiqa va san'at maktablarida individual va jamoa mashg'ulotlarini tashkil etish mexanizmlari (cholg'u ijrochiligi misolida).....	74
Omonova Charos Baxodir qizi	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining o'quv-biluv faoliyatini motivatsiyalashda interfaol metodlardan foydalanish.....	79
Saidova Zulfizar Norbobo qizi	
O'qituvchining kognitiv egizagi (Digital Twin): sun'iy intellekt yordamida individual pedagogik uslubni modellashtirish.....	83
Kuchkarova Feruza Qambaraliyevna	
Abdusamad Boboxo'jayev rahbarligida tarix va arxeologiya institutining rivoji: 1964-yilgi arxiv hujjati misolida	91
Abdullayev Botir Jabbor o'g'li	
Maktab o'quvchilarining musiqiy idrokni shakllantirishning ijtimoiy va didaktik zarurati.....	93
Abdumannan Maxammatov	



“Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kalokagatiyani rivojlantirishning KAMOL modeli asosidagi pedagogik texnologiyasi”	97
<i>Abdurahmonova Dilorom Jovliyevna</i>	
Morphological Structure and Word Formation of Ecotourism Terminology: A Cross-Linguistic Analysis With Reference to the Uzbek Language.....	104
<i>Absamatova Charos</i>	
Fizika fanini o'tmda o'qitishda masalalar yechishning ilmiy-metodik ahamiyati	107
<i>Akmal Mustafoyev Isaqulovich, Munajat Mustafoyeva Oltibekovna</i>	
Kasbiy yo'naltirilgan ingliz tili darslarida metakognitiv strategiyalar asosida akademik nutqni rivojlantirish ..	111
<i>Allamuratov G'ofur Ashurovich</i>	
Maktabgacha ta'limda bolalarning mayda qo'l motorikasini rivojlantirish metodikasi	116
<i>Amanova Albina Dexqon qizi</i>	
Psychological Approaches in Teaching English in Preschool Education and their Effectiveness	120
<i>Berdiqulova Zamira Albertovna</i>	
The Role of Family, Education, and Community Systems in Shaping Individual Psychological Well-Being .	124
<i>Diibar Abdullayeva Ubaydullayevna, Iroda Panjiyeva Khayitovna</i>	
Nomoddiy madaniy merosning talaba-yoshlarni yuksak ma'naviyatli shaxs sifatida tarbiyalashdagi ahamiyati	127
<i>Erboyev Suxrob Abdusalomovich</i>	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida inson resurslarini boshqarishda muvozanatlashgan ko'rsatkichlar tizimidan foydalanishning nazariy asoslari	131
<i>Gulmira Jumanova</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'stirishda badiiy adabiyotning dolzarbligi	135
<i>Hasanova X. Z.</i>	
Gospital ta'lim sharoitida ona tili fanini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi	139
<i>Hikmatov Bobobek Saydulloyevich</i>	
ASB bo'lgan bolalarda sensor buzilishlarning kognitiv va ijtimoiy rivojlanishga ta'siri	142
<i>Isaxanova Oybarchin Abduraxim qizi</i>	
Maktabgacha ta'limda kommunikativ faoliyat samaradorligining pedagogik mexanizmlari	146
<i>Maxmutazimova Yulduz Raxmatovna</i>	
David haykali ko'z bo'lagining qalamtasvirini bajarish usullari.....	149
<i>Mo'minov Baxtiyor Karamatovich</i>	
Ta'limda fanlararo integratsiyadan foydalanishning pedagogik va psixologik asoslari	154
<i>Oblakulova Nodira Abduvali qizi</i>	
Ellipslarni tasviriy san'at va muhandislik grafikasida yasash metodikasi.....	160
<i>Sheraliyev Sanjarbek Karimberdiyevich</i>	
Kommunikativ strategiyaning yuzaga kelish omillari	170
<i>Normaxmatova Feruza Ruziboyevna</i>	
Umumta'lim maktab musiqa madaniyati darslarida raqamli texnologiyalardan foydalanish muammo va yechimlari	174
<i>O'rishboyeva Xumora O'rol qizi</i>	
Maktabda jismoniy tarbiya darslarida futbol elementlaridan foydalanib 10-11 yoshli bolalarda tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirish uslubiyati	177
<i>Qurbonbayeva Maftuna G'ayrat qizi</i>	
Maktabda darsdan tashqari futbol to'garaklarida o'quvchilarning tezkor-kuch qobiliyatlarini takomillashtirish	182
<i>Ro'ziboyeva Fotima Quدرات qizi</i>	
Matn ustida ishlash samaradorligini baholash mezonlari	187
<i>Sadarova Nilufar</i>	
Neyroestetik stimulning yosh dinamikasidagi roli: kognitiv emotsional sferani qayta tashkil etish mexanizmlari.....	193
<i>Salaxidinova Xolida Xaliljonovna</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	Kasbiy ta'limda o'quvchilarning psixologik va axloqiy sifatlari 198 Salomov Abdurasul Axmadovich
	Funksiyaning hosilasi yordamida o'sish va kamayish oraliqlarini aniqlash metodikasi 201 Sherzad Eshjanovich Bekchanov, Shohida Sadullaeva Ziyadullaeva, Abdusalom A. Xudoyberdiev
	Bo'lajak tarbiyachilarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishda psixologik treninglarning nazariy va amaliy asoslari..... 205 Sojida Safarova Saxadin qizi
	Destruktiv xulq-atvor psixologik va pedagogik qarovsizlik oqibati sifatida..... 207 Umirzoqova Shodiya Lutfullo qizi
	Maktabgacha ta'limda bolalar bilan innovatsion texnologiyalar yordamida ekologik omillarni singdirish 210 Xoldorova Mashxura G'ulomovna
	Роль антиоксидантной системы в повышении работоспособности спортсменов 214 Нурбаев Бахтиёр Шириневич
	Shaxs irodaviy sohasini rivojlantirishning psixologik determinantlari..... 217 To'ychiyeva Shoyista Jumabayevna
	Ta'lim jarayonida va talabalarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ahamiyati 223 X. Xalilova, N. Niyazova
	Optimization of Periodontal Disease Treatment Tactics in Patients With Chronic Hepatitis C After Achieving a Sustained Virological Response 227 Makhmudova Ugiyoy Bakhtiyorovna
	Pathogenetic and Clinical Rationale for the Prevention and Management of Periodontal Diseases in Workers Within Dust-Hazardous Environments 230 Turumova Marjona Bakhodirovna
	Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarining boshqaruv faoliyati va kasbiy madaniyati 233 Imamova Nilufar Zabiyyulla qizi, Soloyeva Rayhonoy Ravshanbek qizi
	Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida integratsiyalashgan ijodiy muhitni tashkil etishning ilmiy-metodologik asoslari 236 Sultanov Xaytboy Eraliyevich
	Ma'naviy-ma'rifiy faoliyat orqali o'smirlarda huquqbuzarlik profilaktikasining pedagogik asoslari 241 Umarov Qobiljon
	Maktab o'quvchilari orasida kiberbulling profilaktikasi yo'llari 245 Jannazarova Juldizxan Aliiyar qizi
	Kimyo ta'limi jarayonida kreativ yondashuv asosida kompetensiyaviy yondashuvni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish 250 Allaberdiyeva Zebinisobegim Ismoiljon qizi
	Universality in Phraseological Units in English, Dutch and Uzbek 253 Khaydarova Guzalkhon
	Texnologik ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalanishning o'quv samaradorligiga ta'siri: universitet darajasida istiqbollor 256 Musurmonova Ma'mura Oman qizi, Berdiyeva Gulnoza Rizoqulovna
	Chet el va mahalliy tajribalarda muhandislik musobaqalari samaradorligi 261 N. Nomozova, A. Muxamadiyev
	Autizm spektri buzilishlarining klinik-pedagogik xususiyatlari va ularni korreksiyalashning ilmiy asoslari..... 267 Polatova P. M., Polvonova Kishchan Ravshanovna
	Tenglamalar ildizlarini aniqlashda vatarlar usuli va python dasturiy modeli 272 Rizayeva Bahoroy Jahongir qizi
	Algebra fanini o'rganishda talabani xatolarini tahlil qilish va ularni bartaraf etish usullari 277 Zaxiriddinova Shahlo Zahiriddin qizi, Norboyeva E'zoza O'tabek qizi, Oqbutayeva Sumbula Normuhammad qizi
	Интегрированный подход как основа развития русской связной речи иноязычных студентов неязыковых специальностей 280 Бозорова Хулкар Одинакуловна



Оптимизация трудовых отношений в системе общего среднего образования на основе HR-менеджмента: эмпирический анализ.....	284
Турикова Лазокат Машрабовна	
Pedagoglarning huquqiy maqomi hamda global kompetensiyalar bilan bog'liq muammo va yechimlar.....	296
Javohir Baxtiyorovich Shukurov	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida og'zaki nutqni rivojlantirishning kommunikativ yondashuv asoslari.....	305
Holikulova Feruza Xasanovna	
Talabalarda internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning agressiv xulq-atvorga ta'siri.....	309
Tosheva Sayyora Raxmonqulovna	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning nazariy asoslari.....	314
Nurmatova Iroda Toxtasinovna, Qutlimuratova Dilnoza Oybek qizi	
O'quv materiallarini didaktik prinsiplar asosida bayon qilishning nazariy-amaliy asoslari.....	318
Turdiyeva Navruza Sheraliyevna	
Raqamli va globallashtirilgan muhitda maktabgacha yoshdagi bolalarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini rivojlantirish.....	323
Avazova Xidoyat Zafar qizi	
Boshlang'ich sinf o'qish darslarida badiiy asar tahlil qilish kompetensiyasini shakllantirish orqali o'quvchilar nutqini boyitish ("Bog'bon va nihol" rivoyati misolida).....	327
Normurodova Nigora Abdusattorovna, Abduxalilova Mohinur To'raqul qizi	
Qoraqalpog'iston cho'l yaylovlarning holatiga katta qumsichqonlar ta'sirini baholash.....	331
Adilbayeva Genjexan	
O'zbekiston zaminida uyg'onish - renessans hodisasining yuz berishi: shakllanishi, musulmon va insoniyat dunyosi taraqqiyotidagi o'rni.....	335
Choriyev Mirjalol Baxtiyor o'g'li	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining ekologik kompetentligini badiiy-loyihaviy faoliyat orqali rivojlantirish metodikasi.....	340
Istamov Zavqiddin Sa'dulloevich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida fonetik kompetensiyani rivojlantirish orqali orfoepik va orfoepik bilimlarni shakllantirish.....	344
Mamasidikova Naima Toxirjon qizi	
Talabalarining mustaqil o'qish va o'rganish kompetensiyalarini rivojlantirishning metakognitiv aspektlari.....	348
Mirsobitova Parvina Bahodir qizi	
Sun'iy intellekt vositasida talabalarining axloqiy-estetik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari..	351
Muminov Zokir Sharop o'g'li	
Ta'lim muhitining o'quvchilarning emotsional holatiga ta'siri.....	354
Nurmatov Nurhayot Nurziyat o'g'li, Otaqurbonbova Nigina Rustam qizi	
STEAM yondashuvi asosida o'simliklar fiziologiyasi fanida o'quv mazmunini didaktik qayta tashkil etish xususiyatlari.....	358
Xoliqulova Gulchehra Alimardon qizi	
Особенности развития эмоционального интеллекта у детей дошкольного возраста.....	363
Мирзаева Наргиза	
Inklyuziv ta'limni tashkil etishning pedagogik asoslari.....	367
Abdanbekova Nilufar Rixsiyevna	
O'qituvchining pedagogik mahoratini takomillashtirish va uni rivojlantirish omillari.....	370
Ismailova Shaira Ferdausovna	
Maktab o'quvchilarida o'zini o'zi tarbiyalashni shakllantirishning pedagogik asoslari (8–9-sinflar asosida)..	373
Norxo'jayeva Lobar Nuriddin qizi	
Inkluziv ta'limda pedagoglarning mahorati va pedagogik innovatsiyalar.....	378
Raxmonova Gullola Shavkatovna	
The Impact of Collaborative Writing Activities on EFL University Students' Essay Writing Skills: A Classroom-Based Study.....	382
Shovkiewa Munisa Shonazar kizi	

ChatGPT va generativ AI vositalarining o'quv jarayonidagi didaktik imkoniyatlari.....	386
Sotivoldiyev Shohruhmirzo Abdumalik o'g'li	
O'qituvchi shaxsining pedagogik etikasi va kasbiy madaniyati.....	390
Sultonova Nargiza Nigmatovna	
Raqamli transformatsiya sharoitida talabalarining media savodxonligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari.....	393
Zaxiriddinova Shaxlo, Nurova Manzura, Murodova Fayoza	
Talabalar matematik tafakkurini rivojlantirishda analizdan masalalar yechish strategiyalari	397
Zaxiriddinova Shaxlo, Tufliyeva Roziya, Ismatullayev Javohir	
Роль социальной компетенции в процессе интенсивного когнитивного развития	402
З. Ф. Азизова	
Роль научного знания в повышении качества образования	406
Сагатова Диёра Абдулазиз кизи	
Методы использование информационных технологий в научном исследовании качества образования в ВУЗе.....	409
Урабова Марина Батыровна, Туленова Карима Жандаровна, Генжебаева Кундуз Саламат кизи	
Академический стресс и формирование механизма "Самообвинения" у студентов	412
Хошимова Дилорам Анваровна, Немаджанова Наргиза	



O'ZBEKISTON ZAMINIDA UYG'ONISH - RENESSANS HODISASINING YUZ BERISHI: SHAKLLANISHI, MUSULMON VA INSONIYAT DUNYOSI TARAQQIYOTIDAGI O'RNI

Choriyev Mirjalol Baxtiyor o'g'li

Termiz davlat pedagogika instituti
 ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi,
 ma'naviyat asoslari yo'nalishi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston zaminida yuz bergan Uyg'onish - Renessans hodisasining tarixiy shakllanishi, mazmuni, intellektual ildizlari, musulmon sivilizatsiyasi va jahon tafakkuri taraqqiyotidagi o'rni tahlil qilinadi. Maqolada Movarounnahr, Xorazm, Buxoro, Samarqand, Termiz, Nasaf, Shosh va Farg'ona kabi ilmiy-madaniy markazlarda shakllangan ilmiy muhitning umumiy xususiyatlari ochib beriladi. Renessans hodisasi faqat tarixiy faxr manbai sifatida emas, balki fan, ta'lim, axloq, davlat boshqaruvi, shahar madaniyati, qo'lyozma merosi, ilmiy maktablar va insonparvarlik tafakkuri uyg'unlashgan murakkab sivilizatsion jarayon sifatida baholanadi. Maqolada tarixiy merosni bugungi O'zbekistonning Uchinchi Renessans g'oyasi, ilm-fanni rivojlantirish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, qo'lyozmalarni raqamlashtirish, yoshlar ma'naviyatini mustahkamlash va innovatsion taraqqiyot siyosati bilan bog'lash zarurligi asoslanadi.

Kalit so'zlar: renessans, uyg'onish, Movarounnahr, O'zbekiston, musulmon sivilizatsiyasi, meros, ma'naviyat, Uchinchi Renessans, qo'lyozma, ilm-fan, insonparvarlik, ma'rifat.

Abstract: This article analyzes the historical formation, essence, intellectual roots, and significance of the Renaissance phenomenon that emerged in Uzbekistan in the development of Muslim civilization and global thought. The study reveals the general characteristics of the scientific environment formed in major cultural and intellectual centers such as Movarounnahr, Khorezm, Bukhara, Samarkand, Termez, Nasaf, Shosh, and Fergana. The Renaissance is interpreted not only as a source of historical pride but also as a complex civilizational process integrating science, education, ethics, public administration, urban culture, manuscript heritage, scholarly schools, and humanistic thought. The article substantiates the need to connect historical heritage with the idea of the Third Renaissance in modern Uzbekistan, including the development of science, modernization of higher education, digitization of manuscripts, strengthening youth spirituality, and the promotion of innovative development policies.

Key words: renaissance, revival, Movarounnahr, Uzbekistan, Muslim civilization, heritage, spirituality, Third Renaissance, manuscript, science, humanism, enlightenment.

Аннотация: В данной статье анализируются историческое формирование, содержание, интеллектуальные истоки и значение явления Уйг'ониш - Ренессанса на территории Узбекистана в развитии мусульманской цивилизации и мировой мысли. В статье раскрываются общие особенности научной среды, сформировавшейся в таких научно-культурных центрах, как Мавераннахр, Хорезм, Бухара, Самарканд, Термез, Насаф, Шош и Фергана. Явление Ренессанса рассматривается не только как источник исторической гордости, но и как сложный цивилизационный процесс, объединяющий науку, образование, нравственность, государственное управление, городскую культуру, рукописное наследие, научные школы и гуманистическое мышление. Обосновывается необходимость увязки исторического наследия с идеей Третьего Ренессанса в современном Узбекистане, развитием науки, модернизацией высшего образования, цифровизацией рукописей, укреплением духовности молодежи и политикой инновационного развития.

Ключевые слова: ренессанс, возрождение, Мавераннахр, Узбекистан, мусульманская цивилизация, наследие, духовность, Третий Ренессанс, рукопись, наука, гуманизм, просвещение.

KIRISH

O'zbekiston zaminida yuz bergan Uyg'onish hodisasi tarixiy taraqqiyotning oddiy madaniy ko'tarilishi emas, balki ilm, e'tiqod, tafakkur, axloq, shaharsozlik, ta'lim, kitobat va davlat boshqaruvi bir-birini to'ldirgan keng qamrovli sivilizatsion jarayondir. Bu hodisa Markaziy Osiyo tarixida tasodifan paydo bo'lmagan. Uning

shakllanishi qadimgi Baqtriya, So'g'd, Xorazm, Farg'ona va Choch hududlarida mavjud bo'lgan dehqonchilik madaniyati, savdo yo'llari, yozuv an'analari, shahar hayoti, zardushtiylik, buddaviylik, moniylik, nasroniylik va keyinchalik islom madaniyati bilan bog'liq ko'p qatlamli tarixiy tajribaga tayangan. Shu bois O'zbekiston zaminidagi Renessansni faqat IX-XII asrlar yoki Temuriylar davri doirasida chegaralash tor yondashuv bo'ladi. Uning ildizlari qadimgi shahar madaniyati va Buyuk Ipak yo'li orqali shakllangan xalqaro ilmiy-madaniy aloqalarga borib taqaladi. Renessans atamasi mazmunan uyg'onish, yangilanish, inson aql-zakovati va ijodiy qudratining tarixiy faollashuvini bildiradi. Yevropa tarixida bu tushuncha ko'proq XIV-XVI asrlar Italiya va G'arbiy Yevropa madaniy ko'tarilishi bilan bog'liq talqin qilinadi.

O'zbekiston va kengroq ma'noda Movarounnahr tarixida esa Renessans hodisasi o'ziga xos ko'rinishga ega bo'lgan. Bu yerda uyg'onish insonni ilohiy olamdan ajratib qo'yish orqali emas, balki ilmni e'tiqod bilan, tafakkurni axloq bilan, aqlni mas'uliyat bilan uyg'unlashtirish orqali namoyon bo'lgan. Musulmon Sharqi Renessansining eng kuchli jihati ham shunda ko'rinadi. Ilm faqat nazariy mashg'ulot sifatida emas, balki jamiyatni tartibga solish, inson kamolotini ta'minlash, adolatli boshqaruvni asoslash, tabiat qonuniyatlarini tushunish va ma'naviy poklanishga xizmat qiluvchi vosita sifatida qaralgan. Bugungi O'zbekiston sharoitida mazkur mavzuning dolzarbligi yanada ortgan. Chunki tarixiy Renessans merosini o'rganish faqat o'tmishdagi buyuk allomalarni sanab o'tish emas. U ta'lim mazmunini yangilash, yoshlarning tarixiy tafakkurini rivojlantirish, ilmiy izlanish madaniyatini shakllantirish, diniy-ma'rifiy immunitetni kuchaytirish, milliy g'ururni sog'lom asosda tarbiyalash va zamonaviy innovatsion jamiyat qurish bilan bevosita bog'liq.

O'zbekiston Prezidenti tomonidan ilgari surilgan Uchinchi Renessans g'oyasi ham aynan tarixiy merosni zamonaviy taraqqiyot strategiyasi bilan bog'lashga qaratilgan. Prezidentning "Buyuk ajdodlar merosi - Uchinchi Renessans asosi" mavzusidagi xalqaro kongress ishtirokchilariga murojaatida O'zbekiston "jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri", "tinchlik, do'stlik va ilm-ma'rifat diyori" sifatida ta'riflangan. Bu yondashuv tarixiy xotirani siyosiy shior darajasida emas, balki ilmiy, tarbiyaviy va amaliy taraqqiyot omili sifatida anglash zarurligini ko'rsatadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston zaminidagi Renessans hodisasini o'rganishda mahalliy tarixshunoslik, sharqshunoslik, falsafa, pedagogika va ma'naviyatshunoslik tadqiqotlari muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

B. Ahmedov, A. Muhammadjonov, A. Ziyov, T. Qori Niyoziy, N. Komilov, A. Irisov, H. Hasanov, B. Abduhalimov, Sh. Vohidov, Q. Rajabov kabi olimlarning asarlarida Movarounnahr va Xorazm hududlarida shakllangan davlatlar, ilmiy maktablar, madaniy aloqalar, buyuk allomalar merosi va yozma manbalar tahlil qilingan. Ushbu tadqiqotlarda Renessans hodisasi ko'pincha "Sharq uyg'onishi", "Musulmon Renessansi", "Markaziy Osiyo ilmiy uyg'onishi", "Temuriylar davri madaniy ko'tarilishi" kabi tushunchalar orqali yoritiladi.

B. Ahmedovning tarixiy manbashunoslikka oid ishlari O'zbekiston tarixini o'rganishda yozma manbalar, solnomalar, tazkiralalar va tarixiy asarlarning ahamiyatini ko'rsatadi.

A. Muhammadjonovning qadimgi va o'rta asrlar O'zbekiston tarixi bo'yicha tadqiqotlarida shaharlar, sug'orish tizimlari, hunarmandchilik, savdo yo'llari va davlat boshqaruvi madaniy uyg'onishning moddiy asoslari sifatida tahlil qilinadi.

A. Ziyov o'zbek davlatchiligi tarixini izohlashda siyosiy tashkilot, huquqiy tartib, diplomatiya va madaniy taraqqiyot o'rtasidagi bog'liqlikka alohida e'tibor beradi. Bu yondashuv Renessansni faqat ilmiy asarlar ko'pligi bilan emas, balki jamiyatning tashkiliy yetukligi bilan ham baholash zarurligini ko'rsatadi.

T. Qori Niyoziyning Mirzo Ulug'bek astronomiya maktabiga oid tadqiqotlari O'zbekiston zaminidagi ilmiy tafakkurning kuzatuv, hisob-kitob, matematik aniqlik va ilmiy jamoa faoliyatiga tayanganini ko'rsatadi.

Ulug'bek rasadxonasi faqat me'moriy obida emas, balki ilmiy metodologiya, ilmiy boshqaruv va xalqaro bilimlar almashinuvi markazi bo'lgan.

N. Komilovning tasavvuf, axloqiy tafakkur va mumtoz adabiyotga oid ishlari esa Renessans hodisasining ma'naviy qatlamini ochib beradi. Chunki Movarounnahr ilmiy-madaniy muhitida bilim faqat tajribaviy va mantiqiy izlanishlar bilan cheklanmagan, balki inson qalbi, axloq, adolat, kamolot, nafs tarbiyasi va ijtimoiy mas'uliyat masalalari bilan birga rivojlangan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Yozma meros masalasida Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondlari alohida ahamiyatga ega. Fanlar akademiyasi ma'lumotiga ko'ra, institut asosiy fondidagi qo'lyozmalar elektron katalogi 25 mingdan ortiq tavsifni o'z ichiga oladi. Bu raqam O'zbekiston hududida va u bilan bog'liq ilmiy-madaniy makonda yaratilgan qo'lyozma merosning miqyosi juda keng ekanini ko'rsatadi.



UNESCO esa Al-Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti kolleksiyasini Markaziy Osiyodagi eng muhim qo'lyozma to'plamlaridan biri sifatida baholab, bu fond Buyuk Ipak yo'li chorrahasidagi ilmiy-madaniy aloqalarni, islom ilmi va madaniyati taraqqiyotidagi Markaziy Osiyo rolini aks ettirishini qayd etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston zaminida Renessansning shakllanishi uchun bir necha asosiy omillar bir vaqtda ta'sir ko'rsatgan. Eng muhim omil shahar madaniyatining yuksak darajada rivojlanganligi bo'lgan. Buxoro, Samarqand, Termiz, Xiva, Urganch, Nasaf, Kesh, Shosh va Farg'ona vodiysi shaharlari ilm, savdo, hunarmandchilik, diplomatiya va diniy-ma'rifiy hayot markazlari sifatida rivojlangan. Shaharlar mavjud bo'lmagan joyda madrasalar, kutubxonalar, rasadxonalar, ustoz-shogird maktablari, kitob bozorlari va ilmiy munozara muhitining shakllanishi qiyin. Demak, Renessansning birinchi real poydevori shahar hayoti, iqtisodiy barqarorlik va savdo aloqalaridir. Buyuk Ipak yo'li bu jarayonda faqat tovar almashinuvi yo'li bo'lmagan. U g'oyalar, tillar, yozuvlar, ilmiy usullar, diniy qarashlar va texnologiyalar almashinuvini ta'minlagan madaniy makon bo'lgan. Movarounnahr geografik jihatdan Xitoy, Hindiston, Eron, Arab xalifaligi, Vizantiya, Dashti Qipchoq va keyinchalik Rus yerlari bilan bog'lovchi hududda joylashgani sababli bu yerda muloqot madaniyati kuchli bo'lgan. Ilmiy uyg'onish uchun yopiq muhit emas, ochiq fikr almashinuvi zarur. O'zbekiston zaminidagi ilmiy maktablar aynan turli madaniy qatlamlarning ijodiy uchrashuvi natijasida kuchaygan.

Muhammad ibn Muso Xorazmiy jahon matematika tarixida algoritim va algebra tushunchalari bilan bog'liq ulkan burilish yasagan allomadir. Uning ilmiy merosi hisoblash madaniyatini tartibga soldi, amaliy matematika, astronomiya, geografiya va keyinchalik Yevropa ilmiy tafakkuriga kuchli ta'sir ko'rsatdi. "Algoritim" atamasining Xorazmiy nomi bilan bog'lanishi O'zbekiston zaminidagi ilmiy uyg'onishning bugungi raqamli davr bilan ham bevosita aloqadorligini ko'rsatadi. Zamonaviy kompyuter texnologiyalari, dasturlash, sun'iy intellekt va raqamli boshqaruv tizimlarining nazariy poydevorida hisoblash algoritmlari yotadi. Bu tarixiy bog'liqlikni ta'lim jarayonida to'g'ri ochib berish yoshlar ongida ajdodlar merosini faqat faxr obyekti emas, balki zamonaviy kasbiy kompetensiyaga ilhom beruvchi manba sifatida anglashga yordam beradi.

Ahmad Farg'oniy astronomiya, geodeziya va kosmografiya rivojiga ulkan hissa qo'shgan. Uning ilmiy qarashlari o'rta asr Sharqi va G'arbida astronomik bilimlarning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan. Farg'oniy merosida tabiatni kuzatish, o'lchash, matematik ifodalash va natijani tizimlashtirish an'anasi kuchli. Bu jihat Renessansning muhim belgilaridan biridir. Chunki uyg'onish faqat ko'p kitob yozish emas, balki borliqni aql, tajriba va dalil asosida anglash madaniyatining kuchayishidir.

Abu Rayhon Beruniy ilmiy tafakkur tarixida tajriba, taqqoslash, tanqidiy tahlil va madaniyatlararo kuzatuv metodini qo'llagan buyuk mutafakkirdir. Beruniy Hindiston tarixi, geodeziya, mineralogiya, astronomiya, farmakognosiya va tarixiy xronologiya sohalarida o'z davri uchun juda yuqori ilmiy mezonlarni namoyon qilgan. Uning ilmiy metodida muhim qonuniyat bor: u voqelikni avval kuzatadi, keyin manbalarni solishtiradi, so'ng xulosa chiqaradi. Bu yondashuv bugungi ilmiy maqola yozish madaniyatiga ham juda yaqin. Demak, Beruniy merosini o'rganish faqat tarix fani uchun emas, balki talabalarda ilmiy metodologiya, manba bilan ishlash, dalilga tayanish va boshqa madaniyatga hurmat bilan qarash kabi ko'nikmalarni shakllantirish uchun ham muhim.

Abu Ali ibn Sino merosida tibbiyot, falsafa, mantiq, psixologiya, axloq va tabiiy fanlar uzviy bog'langan. "Tib qonunlari" asari asrlar davomida Sharq va G'arb tibbiyotida asosiy manbalardan biri bo'lib xizmat qilgan.

Ibn Sino ilmni inson salomatligi, ruhiy holati va jamiyat hayoti bilan bog'lagan. Uning qarashlarida inson organizmi, muhit, ovqatlanish, ruhiy muvozanat va tarbiya o'rtasidagi bog'liqlik ko'rinadi. Bu holat O'zbekiston zaminidagi Renessansning insonparvarlik mohiyatini ochadi. Ilm inson hayotini yaxshilashga xizmat qilmasa, u ijtimoiy ma'no kasb etmaydi.

Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Abu Mansur Moturidiy, Burhoniddin Marg'inoniy kabi allomalar esa O'zbekiston zaminidagi Uyg'onishning diniy-ma'rifiy, huquqiy va axloqiy qatlamini tashkil etadi.

Imom Buxoriy hadis ilmini qat'iy ilmiy mezonlar asosida rivojlantirgan. Hadislarni tekshirishda roviylar ishonchliligi, isnod, matn mazmuni va rivoyat zanjiri kabi mezonlarga e'tibor berilishi tarixiy manbashunoslik madaniyatining shakllanishiga ham ta'sir ko'rsatgan.

Imom Termiziy hadis ilmini tasniflash va sharhlashda muhim o'rin tutgan. Abu Mansur Moturidiy aql va e'tiqod muvozanatini asoslagan kalom maktabining yirik namoyandasi sifatida musulmon tafakkurida mo'tadillik, dalil, mantiq va mas'uliyat tamoyillarini mustahkamlagan.

Burhoniddin Marg'inoniy "Hidoya" asari orqali hanafiy fiqhining tizimli rivojiga hissa qo'shgan. Bu meros musulmon dunyosida huquqiy tafakkur, ijtimoiy tartib va adolat tushunchalarining shakllanishida muhim rol o'ynagan.

Temuriylar davri O'zbekiston zaminidagi Renessansning ikkinchi yirik bosqichi sifatida alohida e'tiborga loyiq. Amir Temur davrida markazlashgan davlat, xavfsiz savdo yo'llari, me'morchilik, hunarmandchilik, ilm-fan va san'at rivoji uchun siyosiy sharoit yaratilgan.

Mirzo Ulug'bek davrida esa Samarqand ilmiy maktabi astronomiya va matematika bo'yicha jahon miqyosidagi markazga aylangan. Ulug'bek rasadxonasi, "Ziji jadidi Ko'ragoniy", Qozizoda Rumiy, G'iyosiddin Koshiy va Ali Qushchi faoliyati ilmiy jamoa, kuzatuv usuli, aniq hisob-kitob va xalqaro ilmiy uzviylik namunasi bo'lgan. Bu tajriba bugungi ilmiy muassasalar uchun ham muhim saboq beradi. Ilm-fan yakka iste'dod bilan rivojlanmaydi. Unga maktab, muhit, asbob-uskunalar, homiylik, ilmiy erkinlik, ustoz-shogird tizimi va natijani baholovchi mezonlar zarur.

Alisher Navoiy merosi Renessans hodisasining adabiy, axloqiy va davlatparvarlik qatlamini ifodalaydi. Navoiy turkiy tilning adabiy, falsafiy va badiiy imkoniyatlarini yuksak darajada namoyon qilgan. Uning ijodida inson qadr-qimmatini, adolatli boshqaruv, ilm egalari qadrlash, xalqparvarlik, ma'rifat, mehr, saxovat va komil inson g'oyasi asosiy o'rin egallaydi. Navoiy merosining Renessansdagi o'rni shundaki, u milliy til va umuminsoniy tafakkurni birlashtira olgan. Til taraqqiyoti bo'lmagan joyda milliy tafakkur to'liq shakllanmaydi. Shu sababli Navoiy ijodi O'zbekiston zaminidagi uyg'onishning ma'naviy cho'qqilaridan biridir.

O'zbekiston zaminidagi Renessans hodisasini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bu jarayonning kuchli tomoni fanlararo uyg'unlikda namoyon bo'lgan. O'rta asr allomalari bugungi ma'nodagi tor ixtisoslashuv bilan cheklanmagan. Xorazmiy matematik va astronom, Beruniy tarixchi, astronom, geodezist va madaniyatshunos, Ibn Sino tabib, faylasuf va mantiqshunos, Forobiy siyosiy falsafa, musiqa, mantiq va axloq nazariyotchisi, Ulug'bek davlat arbobi va astronom bo'lgan. Bu holat zamonaviy ta'lim uchun muhim xulosa beradi: bugungi talaba faqat bitta fan doirasida bilim olish bilan cheklanmasligi kerak. U tarixiy tafakkur, raqamli savodxonlik, til bilish, mantiqiy fikrlash, manba tahlili, axloqiy mas'uliyat va kommunikativ kompetensiyalarni birgalikda egallashi zarur.

Renessansning yana bir qonuniyati ilm-fan va davlat siyosati o'rtasidagi bog'liqlikdir. Ma'mun akademiyasi, Buxoro va Samarqand ilmiy muhittari, Temuriylar davridagi madrasalar va rasadxona faoliyati shuni ko'rsatadiki, ilmiy taraqqiyot uchun siyosiy barqarorlik, iqtisodiy resurslar, himoya, kutubxona, ilmiy munozara va ilm egalari hurmat zarur.

Amaliy jihatdan Renessans merosidan foydalanishning eng muhim yo'nalishlaridan biri ta'lim mazmunini yangilashdir. Tarix darslarida allomalar hayotini faqat tarjimai hol shaklida o'qitish yetarli emas. Masalan, Xorazmiy mavzusi algoritmik fikrlash, matematika tarixi va zamonaviy dasturlash bilan bog'lanishi kerak. Beruniy merosi manbashunoslik, geografiya, madaniyatlararo muloqot va ilmiy metod bilan o'qitilishi mumkin. Ibn Sino merosi tibbiyot tarixi, psixologiya, sog'lom turmush tarzi va bioetika bilan bog'lanadi. Imom Buxoriy merosi hadis ilmi bilan bir qatorda axborot ishonchligini tekshirish, manba tanqidiy tahlili va yolg'on axborotdan himoyalash madaniyati bilan izohlanishi mumkin. Bu yondashuv yoshlar ongida tarixiy merosni tirik bilimga aylantiradi. Qo'lyozma merosni o'rganish va raqamlashtirish ham amaliy ahamiyatga ega.

Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi ma'lumotiga ko'ra, 41 mamlakatdagi 256 kutubxona fondida Imom Buxoriy asarlarining 3300 dan ortiq qo'lyozma nusxasi aniqlangan, "Al-Jomi" as-sahih"ning 3275 dan ziyod elektron nusxasi to'plangan va 900 ga yaqin qo'lyozma annotatsiyasi tayyorlangan. Bu raqamlar tarixiy merosni saqlash bugungi kunda faqat muzey yoki arxiv vazifasi emasligini ko'rsatadi. Raqamlashtirish, elektron katalog, tarjima, izohli nashr, ilmiy sharh, xalqaro ma'lumotlar bazasi va ochiq ta'lim resurslari orqali qo'lyozmalar yoshlar, tadqiqotchilar va keng jamoatchilik uchun ishlaydigan bilim manbaiga aylanishi kerak.

Shu bilan birga, muammolar ham mavjud. Eng jiddiy muammo Renessans mavzusining ba'zan yuzaki va shioriy talqin qilinishidir. Buyuk ajdodlar nomini ko'p takrorlash hali ilmiy merosni o'zlashtirish degani emas. Agar Xorazmiy merosi algoritmik tafakkurga, Beruniy merosi tadqiqot metodologiyasiga, Ibn Sino merosi tibbiy madaniyatga, Moturidiy merosi mo'tadil fikrlashga, Navoiy merosi til va ma'naviyat tarbiyasiga aylantirilmasa, Renessans g'oyasi amaliy natija bermaydi. Tarixiy merosni ta'limga kiritishda ikkinchi muammo manbalarni tanqidiy o'qish madaniyatining sustligidir. Ko'p hollarda allomalar haqida bir xil umumiy maqto'vlar takrorlanadi, lekin ularning aniq asarlari, ilmiy usullari, nazariy yangiliklari va jahon ilmiga ta'siri yetarli ochildmaydi.

Yana bir muammo tarjima va ilmiy nashrlar bilan bog'liq. Arab, fors, eski o'zbek, chig'atoy, lotin va kirill yozuvidagi manbalarni o'qiy oladigan mutaxassislar soni yetarli bo'lmasa, qo'lyozma xazinalarining katta qismi ilmiy muomalaga to'liq kirmaydi. Bu yerda sharqshunoslik, tarix, filologiya, dinshunoslik, falsafa, pedagogika va raqamli texnologiyalar hamkorligi zarur. Elektron katalog yaratish muhim qadam, lekin katalogning o'zi yetarli emas. Matnlarni ilmiy transkripsiya qilish, tarjima qilish, izohlash, mavzular bo'yicha indekslash, xalqaro bazalarga kiritish hamda maktab va oliy ta'lim darsliklariga moslashtirish kerak.

XULOSA

O'zbekiston zaminida yuz bergan Uyg'onish - Renessans hodisasi musulmon dunyosi va insoniyat sivilizatsiyasi taraqqiyotida chuqur iz qoldirgan tarixiy jarayondir. Bu uyg'onishning asosida shahar madaniyati, Buyuk Ipak yo'li aloqalari, islom ma'rifati, ilmga homiylik, kitobat an'anasi, madrasalar, kutubxonalar, ilmiy maktablar, ustoz-shogird munosabatlari va axloqiy tafakkur yotadi. Movarounnahr va Xorazm allomalari ilmni hayotdan ajratmagan. Ular matematikani hisob-kitob va boshqaruvga, astronomiyani vaqt va makon anglashga, tibbiyotni



inson salomatligiga, hadis ilmini axloq va ishonchli manba madaniyatiga, fiqhni adolat va tartibga, adabiyotni ma'naviy kamolotga xizmat qildira olgan.

Bu merosning bugungi qiymati o'tmish bilan faxrlanishdagina emas, uning haqiqiy kuchi zamonaviy ta'lim, ilmiy metodologiya, raqamli texnologiyalar, ma'naviy tarbiya, milliy identitet, diniy bag'rikenglik va innovatsion taraqqiyot uchun ishlatilganida ochiladi. O'zbekiston uchun Uchinchi Renessans g'oyasi tarixiy xotira, ilmiy salohiyat va amaliy islohotlar birlashgan taqdirdagina real mazmun kasb etadi. Buning uchun allomalar nomini yodlashdan ularning metodini o'rganishga, qo'lyozmalarni saqlashdan ularni ilmiy muomalaga kiritishga, tarixiy faxrdan zamonaviy kompetensiya yaratishga o'tish zarur. Ana shunda O'zbekiston zaminida shakllangan Renessans merosi yangi avlod tafakkurida davom etadi va musulmon dunyosi hamda insoniyat taraqqiyotiga xizmat qiladigan yangi ilmiy-ma'naviy quvvatga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ahmedov B. O'zbekiston tarixi manbalari. – Toshkent: O'qituvchi, 2001.
2. Muhammadjonov A. O'zbekiston tarixi: qadimgi davrdan XVI asrgacha. – Toshkent: Sharq, 2004.
3. Ziyov A. O'zbek davlatchiligi tarixi. – Toshkent: Sharq, 2001.
4. Qori Niyoziy T. N. Ulug'bekning astronomiya maktabi. – Toshkent: Fan, 1970.
5. Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent: Movarounnahr, 2009.
6. Irisov A. Abu Ali ibn Sino: hayoti va ilmiy merosi. – Toshkent: Fan, 1980.
7. Hasanov H. Sayyoh olimlar. – Toshkent: O'zbekiston, 1981.
8. Abduhalimov B. Bayt al-hikma va Markaziy Osiyo olimlarining Bag'doddagi ilmiy faoliyati. – Toshkent: Fan, 2010.
9. Vohidov Sh., Qodirov A. Sharqning buyuk allomalari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2014.
10. Ma'naviyat yulduzlari: Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1999.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №4(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.